



TAX AND FINANCIAL POLICY DURING THE SECOND WORLD WAR AND ITS MANIFESTATION IN THE AGRARIAN SECTOR

Azizbek Aminovich Kamolov

Head of the Department of Preschool and School Education of Kasbi District

Email: kamolovazizjon@gmail.com

Kasbi, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Second World War, tax-financial policy, agrarian sector, state procurement, war tax, compulsory levies, food supply, labor shortage.

Received: 01.11.25

Accepted: 02.11.25

Published: 03.11.25

Abstract: This article examines the essence of tax and financial policy implemented during the Second World War in the Soviet Union, particularly in the Uzbek SSR, and its manifestation in the agrarian sector. It highlights the management of the agricultural economy under wartime conditions, the increase in tax rates, the introduction of new forms of taxation, and the strict enforcement of state procurement. The study also analyzes the impact of labor shortages, the decline in rural incomes, and food scarcity in relation to fiscal policy.

IKKINCHI JAHON URUSHI DAVRIDAGI SOLIQ-MOLIYA SIYOSATI VA UNING AGRAR SOHADAGI NAMOYON BO'LISHI

Azizjon Aminovich Kamolov

Kasbi tumani maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi boshlig'i

kamolovazizjon@gmail.com

Kasbi, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Ikkinchi jahon urushi, soliq-moliya siyosati, agrar soha, davlat topshiriqlari, urush solig'i, majburiy yig'img'lar, oziq-ovqat ta'minoti, mehnat resurslari.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Ikkinchi jahon urushi yillarida Sovet Ittifoqi, jumladan, O'zbekiston SSRda amalga oshirilgan soliq-moliya siyosatining mazmun-mohiyati va uning agrar sohadagi aks-sadosi tahlil qilinadi. Urush sharoitida qishloq xo'jaligi iqtisodiyotining boshqaruvi, soliqlar stavkalarining oshirilishi, yangi turdagi soliqlarning joriy etilishi hamda davlat topshiriqlarining qat'iylashtirilishi masalalari

ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, mehnat resurslari taqchilligi, aholi daromadlarining pasayishi va oziq-ovqat tanqisligi jarayonlariga soliq siyosati ta'siri ham ko'rib chiqilgan.

НАЛОГОВО-ФИНАНСОВАЯ ПОЛИТИКА В ПЕРИОД ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ И ЕЁ ПРОЯВЛЕНИЕ В АГРАРНОЙ СФЕРЕ

Азизбек Аминович Камолов

Начальник отдела дошкольного и школьного образования Касбийского района

Электронная почта: kamolovazizjon@gmail.com

Касби, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Вторая мировая война, налогово-финансовая политика, аграрный сектор, государственные заготовки, военный налог, обязательные сборы, продовольственное обеспечение, трудовые ресурсы.

Аннотация: В данной статье исследуется сущность налогово-финансовой политики, реализованной в годы Второй мировой войны в Советском Союзе, в частности в Узбекской ССР, и её проявление в аграрной сфере. Рассматриваются управление сельским хозяйством в условиях войны, повышение налоговых ставок, введение новых видов налогов и ужесточение государственных заготовок. Особое внимание уделено влиянию нехватки трудовых ресурсов, снижению доходов сельского населения и продовольственному дефициту на экономическую ситуацию.

Kirish. Sovet davlati soliq tizimining shakllanishi va uning agrar sohada amalda qo'llanilishi tadqiqotchilar tomonidan shartli ravishda to'rt asosiy bosqichga ajratilib o'rganiladi.

Ikkinchi jahon urushi davrida soliq-moliya choralarining asosiy vazifasi davlatning mudofaa xarajatlarini qoplash, front ehtiyojlarini moliyalashtirish hamda iqtisodiy resurslarni safarbar qilishga qaratildi. Shunga muvofiq, soliq siyosati davlatning iqtisodiy boshqaruv vositalaridan biri sifatida keskin kuchaytirildi. Amaliyotda hukumat ikki asosiy yo'nalishda ish yuritdi: birinchidan, mavjud soliqlarning stavkalari keskin oshirildi, ikkinchidan esa yangi turdagi soliqlar joriy qilindi.

Tadqiqotga oid adabiyotlar. Urushdan keyingi davrda asosiy e'tibor vayron bo'lgan qishloq xo'jaligi infratuzilmasini tiklashga, ishlab chiqarishni qayta yo'lga qo'yishga va resurslarni markazlashtirilgan tarzda taqsimlashga qaratildi. Shuningdek, soliq siyosati ham qishloq xo'jaligi mahsulotlarini davlat topshiriqlari asosida majburiy ravishda yetkazib berish mexanizmlarini mustahkamlashga xizmat qildi. Natijada, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida

keskin nazorat o'rnatilib, mehnat resurslarining qayta safarbar etilishi iqtisodiy tiklanish jarayonida muhim omil bo'lib xizmat qildi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida qishloq aholisi daromadlarining keskin pasayishi kuzatildi. Bu holatning sabablari Ye.A. Voznesenskiyning "Voyennaya ekonomika SSSR v period Otechestvennoy voyni" asarida batafsil izohlangan. Olimning ta'kidlashicha, 1941–1942 yillarda yuzaga kelgan iqtisodiy inqiroz uch asosiy omil bilan bog'liq edi [1. 192.].

Birinchidan, hududiy yo'qotishlar. Urushning dastlabki bosqichida Germaniya qo'shinlari SSSRning Yevropa qismi — Belorussiya, Ukraina hamda Rossiyaning markaziy rayonlarini egallab oldi. Natijada, ushbu hududlarda qishloq xo'jaligi tizimi izdan chiqdi, infratuzilma vayron bo'ldi va katta miqdordagi aholi ommaviy evakuatsiya qilindi. Ularning ko'pchiligi Ural, Sibir va Markaziy Osiyo respublikalariga, jumladan, O'zbekistonga joylashtirildi. Qashqadaryo viloyati ham evakuatsiya qilingan oilalar uchun asosiy manzilgohlardan biri bo'ldi.

Ikkinchidan, mehnat kuchi tanqisligi. Millionlab dehqonlar front safiga safarbar etildi. Natijada, qishloq xo'jaligidagi og'ir mehnat asosan ayollar, keksalar va voyaga yetmagan o'smirlarning zimmasiga tushdi. Bu esa unumdorlikni keskin pasaytirdi. Ayniqsa, ayollar mehnati sanoat korxonalari bilan bir qatorda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida ham muhim o'rin egalladi.

Uchinchidan, ishsizlik va moslashuv muammolari. 1941–1942 yillarda yangi hududlarga ko'chirilgan qishloq aholisi uchun ish o'rinlari yetarli darajada yaratilmaganligi sababli, ko'pchilik odamlar vaqtincha ishsiz qoldi. Bu esa ularning real daromadlarining yanada qisqarishiga olib keldi. Shuningdek, turmush sharoitining og'irlashishi oziq-ovqat va kundalik ehtiyoj tovarlari taqchilligi bilan yanada keskinlashdi.

1943-yildan boshlab SSSRning sharqiy hududlarida, jumladan, O'zbekistonda aholi daromadlarining nisbatan tiklanishi kuzatildi. Bu jarayon bir qator omillar bilan izohlanadi.

Birinchidan, urushning dastlabki bosqichlarida Germaniya tomonidan bosib olingan yirik hududlardan ko'plab sanoat korxonalari, ilmiy muassasalar, kolxoz va sovxozlar Ural, Sibir, Qozog'iston va O'zbekistonga ko'chirildi. Bu jarayon natijasida yangi ishlab chiqarish markazlari vujudga keldi, ishchi kuchi qayta taqsimlandi hamda qo'shimcha ish o'rinlari yaratildi.

Ikkinchidan, davlat iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va ishlab chiqarishni rag'batlantirish maqsadida bir qator ijtimoiy-iqtisodiy choralarga qo'l urdi. Xususan, oziq-ovqat ta'minoti yaxshilandi, mehnat haqi tizimi qayta ko'rib chiqildi, mahsulotlarni davlatga topshirishda qo'shimcha mukofotlar belgilandi. Bu rag'batlantirish mexanizmlari qishloq aholisi daromadlarining qisman o'sishiga xizmat qildi.

Uchinchidan, mahalliy dehqonlarga bozor iqtisodiyotida cheklangan darajada erkinlik berildi. Ular mahsulotlarini bozorda yuqoriroq narxlarda sotish imkoniyatiga ega bo'lib, naqd pul

tushumlarini oshirishga muvaffaq bo'ldilar. Bu jarayon qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari uchun muayyan moddiy manfaati bo'lgan iqtisodiy imkoniyat yaratdi.

Shu bois, umumrespublika miqyosida chuqur iqtisodiy inqiroz saqlanib qolgan bo'lsa-da, sharqiy hududlarda qishloq aholisi ma'lum darajada iqtisodiy tiklanish jarayonini boshdan kechirdi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 1940-yilda fuqarolardan yig'ilgan soliqlar va turli to'lovlar davlat byudjeti daromadlarining 13–14 foizini tashkil etgan bo'lsa, 1942-yilda bu ko'rsatkich 19–22 foizgacha ko'tarilgan. 1942-yilda joriy qilingan “harbiy soliq” qisqa muddatda aholining eng og'ir moliyaviy majburiyatiga aylandi va 1943–1944 yillarda umumiy fuqarolar soliqlarining 60 foizdan ortig'ini tashkil etdi.

Natija va muhokamalar. Tadqiqotchi M.N. Gritchina Ikkinchi jahon urushi yillarida (1941–1945) Sovet Ittifoqi soliq tizimini shartli ravishda uch asosiy guruhga ajratib tahlil qilgan. Har bir guruhning o'ziga xos vazifalari va iqtisodiy ahamiyati mavjud bo'lib, ular davlat byudjetini shakllantirishda ham, urush sharoitida iqtisodiy resurslarni safarbar etishda ham muhim rol o'ynagan.

Birinchi guruh — aholiga to'g'ridan-to'g'ri yuklatilgan soliqlar. Ushbu turdagi soliqlar davlat byudjetiga bevosita pul oqimini ta'minlab, urush davrida moliyaviy resurslarning asosiy manbalaridan biriga aylandi. Eng muhimlari sifatida 100 foizlik qo'shimcha qishloq xo'jaligi solig'i ustamasi, urush solig'i va 1941-yilda joriy etilgan “boydoq, yakka va bolasiz fuqarolar solig'i”ni keltirish mumkin. Bu soliqlar deyarli barcha qatlamlarni qamrab olib, front va davlat ehtiyojlari uchun zarur mablag'larni safarbar qilgan.

Ikkinchi guruh — mahalliy soliqlar va yig'imlar. Ular ko'proq mahalliy byudjetlarni to'ldirish vazifasini bajargan bo'lib, bino solig'i, yer rentasi, chorva egalari va transport vositalaridan olinadigan yig'imlar, kolxoz bozorlarida undiriladigan bir martalik yig'imlar shular jumlasidandir. 1942-yildan boshlab esa madaniy tadbirlar va tomoshalardan olinadigan maxsus soliq ham ushbu toifaga qo'shildi. Mazkur soliqlar hududiy moliyaviy tizimni qo'llab-quvvatlash bilan birga, aholining kundalik iqtisodiy faoliyati ustidan ham nazoratni kuchaytirgan.

Uchinchi guruh — majburiy va ixtiyoriy yo'llar bilan jalb etilgan mablag'lar. Bunga davlatning ichki zayomlari, mudofaa fondiga berilgan xayriyalar, lotereyalar, shuningdek, maxsus qimmatlashtirilgan narxlardagi tijorat savdolari kiradi. Ushbu mexanizmlar nafaqat byudjetni qo'shimcha mablag'lar bilan ta'minlagan, balki inflyatsiyani nazorat qilish vositasi sifatida ham xizmat qilgan.

“Boydoq, yakka va bolasiz fuqarolar solig'i” 1941-yil 21-noyabrda Oliy Sovet Prezidiumi qarori asosida joriy qilindi. Unga ko'ra, 20–50 yosh oralig'idagi erkaklar hamda 20–45 yoshdagi ayollar ushbu soliqni to'lash majburiyatiga ega bo'ldilar. Yillik stavka 100 so'm etib belgilangan

bo'lib, bu nafaqat davlat byudjetiga qo'shimcha mablag' jalb qilish, balki demografik rag'batlantirish vositasi sifatida ham ko'zda tutilgan edi[2].

Urush solig'i esa 1941-yil 29-dekabrda Ittifoqning barcha respublikalari qatori O'zbekiston SSR hududida ham joriy etildi. Ushbu soliq 18–60 yosh oralig'idagi barcha fuqarolarga, ularning daromad manbalariga bog'liq bo'lmagan holda, majburiy tarzda tatbiq qilindi[3]. Stavkalar Ittifoq bo'yicha 100 rubldan 4050 rublgacha belgilangan bo'lsa, O'zbekiston SSR sharoitida 150–600 so'm miqdorida hisob-kitob qilindi. Bu soliqning to'liq hajmi mudofaa xarajatlarini qoplashga yo'naltirildi va frontni moliyalashtirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi[4.14].

100 foizlik qo'shimcha qishloq xo'jaligi solig'i ustamasi 1941-yil iyulidan boshlab joriy etilgan bo'lib, uning maqsadi davlatning oziq-ovqat zahiralarini barqaror moliyalashtirish edi. Shu orqali kolxoz va sovxozlarning daromadlari ustidan qat'iy nazorat o'rnatildi[5].

Bundan tashqari, daromad solig'i stavkalari ham keskin oshirildi. Avvalgi stavkalar 50 foizdan 200 foizgacha ko'tarildi va bu, ayniqsa, yuqori daromadli qatlamlardan ko'proq mablag' undirishga qaratildi. Natijada, aholining to'laydigan soliqlari hajmi keskin ortdi: agar 1940-yilda fuqarolardan yig'ilgan soliqlar va to'lovlarning davlat byudjetidagi ulushi 13 foizni tashkil etgan bo'lsa, 1942-yilda bu ko'rsatkich 23 foizga, 1943–1944-yillarda esa 28–30 foizga yetdi [6. 58-66].

Urush yillarida davlat byudjetini qo'shimcha manbalar bilan to'ldirish maqsadida mahalliy soliq va yig'imlar tizimi kengaytirildi. Bu guruhga turli ko'rinishdagi soliq turlari kiritildi, ularning orasida 1942-yilda joriy etilgan madaniy tadbirlar solig'i alohida o'rin tutadi. Mazkur tartibga ko'ra, konsertlar, tomoshalar, sirk va boshqa ommaviy-madaniy tadbirlarni tashkil etuvchilar tomoshabinlardan tushadigan daromad hisobidan maxsus soliq to'lashga majbur qilindi[7].

Shu sababli, 1940-yillarning o'rtalariga kelib mahalliy soliq va yig'imlar davlat soliq-moliya siyosatining ajralmas tarkibiy qismiga aylandi. Mazkur davr siyosati o'z mohiyatiga ko'ra "Pobeda uchun umumxalq safarbarligi"ning moliyaviy tayanchini tashkil etib, urushning og'ir iqtisodiy oqibatlarini yumshatishda muhim rol o'ynadi.

Soliq siyosatining uchinchi yo'nalishi sifatida davlat tomonidan ixtiyoriy va majburiy yo'llar orqali mablag' jalb etish mexanizmlari joriy etildi. YA. Ye. Chadayevning "Ekonomika SSSR v godi Velikoy Otechestvennoy voyni (1941–1945 gg.)" nomli asarida bu jarayon keng tahlil qilinadi. Muallif qayd etishicha, 1942-yildan boshlab harbiy soliq davlat moliya tizimida alohida o'rin egalladi va yangi maxsus moliyaviy instrument sifatida shakllandi. Ushbu soliq turidan tushgan mablag'lar Ikkinchi jahon urushi yillarida SSSR byudjetining muhim tayanch manbai bo'lib xizmat qildi[8. 494].

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 1941–1945 yillarda fuqarolardan undirilgan mablag'lar umumiy byudjet daromadlari hajmida sezilarli ulushni tashkil etdi. Jumladan, to'plangan 13,7 milliard rubl mablag'ning 13 foizi bevosita fuqarolardan olingan soliqlar hisobiga shakllangan. Bu

ko'rsatkich urush davrida aholi zimmasiga tushgan moliyaviy yukning naqadar og'irligini ko'rsatib beradi.

Soliq-moliya siyosatining urush yillaridagi muhim yo'nalishlaridan yana biri qishloq xo'jaligi mahsulotlarini to'g'ridan-to'g'ri davlat tasarrufiga olishga qaratilgan qonunchilik choralari joriy etish bo'ldi. Shulardan eng asosiylaridan biri — 1941 yil 29 iyunda SSSR Oliy Soveti Prezidiumi tomonidan qabul qilingan “Davlat hosil topshiriqlarini ta'minlash choralari to'g'risida”gi farmondir. Mazkur hujjat Ikkinchi jahon urushi (SSSR terminologiyasida — “Vatan urushi”) boshlanishidan so'ng qabul qilingan ilk yirik iqtisodiy-agrar qaror bo'lib, mamlakatning mudofaa ehtiyojlarini qondirishda strategik ahamiyat kasb etdi[9].

Farmon ijrosi jarayonida hosilning katta qismi davlat buyurtmalariga yo'naltirildi. Natijada, kolxoz va sovxozlarda yetishtirilgan mahsulotning deyarli barchasi front, harbiy sanoat korxonalari hamda shahar aholisi ehtiyojlari uchun safarbar qilindi. Mehnat resurslari taqchilligi ham jiddiy muammo bo'ldi. Millionlab erkaklarning frontga jo'natilishi oqibatida hosilni asosan ayollar, keksalar va o'smirlar yig'ib-terdi.

Xulosa. Natijada qishloq aholisi o'rtasida oziq-ovqat tanqisligi kuchaydi, aholining kundalik ratsioni qat'iy me'yorlar bilan cheklab qo'yildi. Davlat topshiriqlarini o'z vaqtida bajarmagan xo'jaliklar “diversiya” sifatida baholanib, og'ir jazo choralariga duchor qilindi. Shu tariqa, farmon ijrosi dehqonlar o'rtasida shaxsiy rag'batni yo'qqa chiqardi va mehnatni majburiy tusga keltirdi.

Bundan tashqari, mahsulot bilan birga qishloq xo'jaligi texnikasi hamda yoqilg'ining katta qismi ham frontga yo'naltirilganligi sababli xo'jaliklar moddiy-texnik bazasida tanazzul yuz berdi. Bu holat urushdan keyingi yillarda agrar sohaning tiklanish jarayonini ancha murakkablashtirdi hamda iqtisodiy tiklanish sur'atlariga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Вознесенский Николай Алексеевич. Военная экономика СССР в период Отечественной войны / Н. Вознесенский. - [Москва] : ОГИЗ : Государственное издательство политической литературы, 1947. —с. 192.
2. СССР Олий Совети Президиуми Фармони «О введении налога на холостяков, одиноких и бездетных граждан СССР» от 21 ноября 1941 года // Ведомости Верховного Совета СССР, 1941, № 47.
3. СССР Олий Совети Президиуми Фармони «О военном налоге» от 29 декабря 1941 года // Ведомости Верховного Совета СССР, 1942, № 2.
4. Сергеева И.В. Налогообложение населения советской деревни в 1945–1953 гг.: Автореф. дис. ... канд. ист. наук. – М., 2012. – С. 14.

5. СССР Олий Совети Президиуми Фармони «О внесении изменений в порядок взимания сельскохозяйственного налога в 1941 году» от июля 1941 года // Ведомости Верховного Совета СССР, 1941, № 29.

6. Гритчина М.Н. Налоговая политика в годы Великой Отечественной войны / М.Н. Гритчина // Региональная экономика: теория и практика. 2015. № 40 (415). С. 58–66.

7. СССР Олий Совети Президиуми Фармони “О введении налога на зрелища” // Ведомости Верховного Совета СССР, 1942, № 30.

8. Чадаев Я. Е., Экономика СССР в годы Великой Отечественной войны (1941—1945 гг.). - 2-е изд., перераб. и доп.— М.: Мысль, 1985. — 494 с.

9. Президиум Верховного Совета СССР. Указ «О мерах по обеспечению государственных заготовок урожая» от 29 июня 1941 года // Ведомости Верховного Совета СССР, 1941, №28.